



FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN

Askarova Dilafruz Ibrokhimovna

Fergana State University

Teacher of the Department of Preschool Education, Ph.D. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17576958>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

Emotional intelligence, preschool age, empathy, self-awareness, communicative development, psychological preparation, social competence.

ABSTRACT

This article analyzes internal and external factors influencing the process of developing emotional intelligence in preschool children. Emotional intelligence is an important competency that determines the socio-psychological maturity of a person, and its formation is directly related to the family environment, educator activities, play activities and communicative experience. Practical methodological recommendations are presented for developing emotional awareness, empathy, management of one's own emotions, and readiness for social interaction in children.

MAKTABGACHA KATTA YOSHLI BOLALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Asqarova Dilafruz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi p.f.b.f.d.(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17576958>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2025

Accepted: 09th November 2025

Online: 10th November 2025

KEYWORDS

Emotsional intellekt, maktabgacha yosh, empatiya, o'zini anglash, kommunikativ rivojlanish, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy kompetensiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish jarayoniga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Emotsional intellekt inson shaxsining ijtimoiy-psixologik yetukligini belgilovchi muhim kompetensiya bo'lib, uning shakllanishi oilaviy muhit, tarbiyachi faoliyati, o'yin faoliyati va kommunikativ tajribaga bevosita bog'liq. Bolalarda hissiy anglash, empatiya, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy o'zaro ta'sirga tayyorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy metodik tavsiyalar keltirilgan.

INTRODUCTION Zamonaviy pedagogika va psixologiyada "emotsional intellekt" tushunchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan



biri sifatida qaralmoqda. Maktabgacha katta yoshli bolalar emotsional rivojlanishining faol bosqichida bo'lib, bu davrda ular o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalar hissiyotiga munosabat bildirish qobiliyatlarini egallaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tashkil etish dolzarb masaladir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish shaxsning keyingi ijtimoiy, psixologik va aqliy kamolotining poydevorini yaratadi. Chunki, emotsional jihatdan yetuk bola o'z his-tuyg'ularini anglay oladi, ularni boshqarishni o'rganadi hamda atrofdegilar hislarini tushunishga intiladi. Ijtimoiy muhitga tez moslasha oladi, tengdoshlari va kattalar bilan samimiy, hamkorlikka asoslangan muloqot o'rnatadi.

Emotsional intellektning shakllanish jarayoni murakkab va ko'p omilli bo'lib, u oilaviy, pedagogik va ijtimoiy muhitning uyg'un ta'siri ostida kechadi. Oilaviy muhit bu jarayonda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi: ota-onaning mehr-muhabbati, e'tibori, muloqot sifati va hissiy qo'llab-quvvatlovi bolaning o'zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan his etishiga sabab bo'ladi. Bu holat esa emotsional barqarorlik va ijobiy his-tuyg'ularni shakllantirishga zamin yaratadi.

Pedagogik muhit esa bolaning his-tuyg'ularini ijtimoiy jihatdan to'g'ri ifoda etish, boshqalar bilan muloqotda muvozanat saqlash, empatiya va bag'rikenglikni o'rganish imkonini beradi. Tarbiyachilarning kasbiy mahorati, psixologik sezgirliги va shaxsiy namunasining kuchi bu jarayonda beqiyos ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalarga har bir his-tuyg'u tabiiy holat ekanini tushuntirishi, ularni ijobiy yo'nalishga yo'naltirishi, salbiy hislarni konstruktiv tarzda boshqarishga o'rgatishi kerak.

MATERIALS AND METHODS Emotsional intellekt atamasi birinchi marta P.Salovey va J.Mayer tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ular uni "shaxsning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda hissiy axborotdan samarali foydalanish qobiliyati" sifatida ta'riflaydilar. Keyinchalik D.Goulman bu nazariyani kengaytirib, emotsional intellekt inson muvaffaqiyati va yetukligi uchun muhimroq omil sifatida e'tirof etgan. U emotsional intellektni besh komponentga ajratgan: o'z hissiyotlarini anglash, o'zini boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar.

Rossiyalik olimlar ichida L.S.Vygotskiy va A.N.Leontev emotsional rivojlanishni bola faoliyatining ijtimoiy tabiatidan kelib chiqqan holda izohlab, hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida talqin qilganlar. Ularning fikricha, emotsional intellekt o'yin, muloqot va kattalar bilan munosabat jarayonida shakllanadi. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan G.S.Saidova va D.Qodirova o'z ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirishda tarbiyachi nutq madaniyati, o'yinli metodlar va oilaviy psixologik muhitning roliga urg'u berganlar.

Maktabgacha katta yosh bolalarda emotsional intellekt rivojiga quyidagi omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi:

1. Oilaviy muhit – ota-onaning hissiy qo'llab-quvvatlashi, mehr-muhabbat, ishonch va ijobiy kommunikatsiya bolaning emotsional barqarorligini oshiradi.
2. Pedagogik muhit - tarbiyachining muloqot uslubi, ijobiy kayfiyat yaratish qobiliyati, dramatizatsiya va o'yin elementlaridan foydalanish emotsional sezgirlikni rivojlantiradi.



3. O'yin faoliyati - rolli o'yinlar, "his-tuyg'ularni ifodalash" mashqlari, "emotsiyalar kartasi" metodikasi orqali bolalar o'z hislarini anglashni o'rganadilar.

4. Muloqot tajribasi - tengdoshlari bilan hamkorlik, muammoli vaziyatlarda his-tuyg'ularni tahlil qilish emotsional tafakkurni kuchaytiradi.

5. Madaniy va milliy qadriyatlar - o'zbek xalq ertaklari, maqollar, xalq og'zaki ijodi bolalarda empatiya, rahm-shafqat va mehr tuyg'ularini uyg'otadi.

Yuqorida qayd etib o'tgan omillarni quyidagi metodlarda taqdim etish samarali natijaga erishilishni ta'minlaydi.

- "Ravon emotsiya ifodasi" metodi - bola o'z hissini mimika va so'z orqali ifoda etadi;

- "Empatiya burchagi" texnikasi - tarbiyachi turli vaziyatlarni taqdim etib, boladan boshqalarning hissiyotini aniqlashni so'raydi;

- O'yinli mashqlar: "Men qanday his qilyapman?", "Quvonch qutisi", "Xafa bo'lgan do'stinga yordam ber" - bu metodlar orqali bola o'z va boshqalarning hissiyotlarini anglab, ularni boshqarishni o'rganadi.

Zamonaviy pedagogik metodlar - masalan, "Hissiyotlar teatri", "Dramalashtirilgan o'yinlar", "Ranglar orqali emotsiyani ifodalash", "Ko'zgudagi hislar" kabi mashg'ulotlar - bolalarda his-tuyg'ularni tahlil qilish, farqlash va to'g'ri ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, gipnopediya, musiqiy terapiya, art-terapiya, relaksatsiya mashqlari kabi innovatsion yondashuvlar bolaning emotsional holatini muvozanatga keltiradi.

RESULT AND DISCUSSIONS O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning emotsional intellekti ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ madaniyati va shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi hamda emotsional intellekt shaxsning hayotiy muvaffaqiyatlarini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'lib, u insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi va axloqiy o'sishini belgilovchi asosiy bosqichdir.

Empirik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, emotsional intellektni rivojlantirishda oilaviy va pedagogik muhitning o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onaning mehr-muhabbatga asoslangan muloqoti, bolaga nisbatan e'tibor va ishonchning yuqoriligi emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, tarbiyachilarning kasbiy yondashuvi, hissiy sezgirliги va individual ishlash tajribasi bolalarda ijobiy his-tuyg'ularni shakllantirishda, empatiya va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tajriba-sinov mashg'ulotlarida qo'llanilgan o'yin texnologiyalari, art-terapiya, ranglar orqali his-tuyg'ularni ifodalash, hissiyotlar teatri kabi usullar bolalarda his-tuyg'ularni aniqlash va boshqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirgan. Bu esa Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga mos ravishda bolaning ijtimoiy muloqot orqali emotsional tajriba orttirish imkonini kengaytirgan.

Emotsional intellekti yuqori bo'lgan bolalarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvor, muloqot madaniyati, o'zaro hurmat, empatiya va murosaga kelish qobiliyatlari kuchliroq shakllangan. Tahliliy natijalarga ko'ra, emotsional intellekti rivojlangan bolalar guruh



muhitida faolroq, tashabbuskor, muammolarni konstruktiv hal etishga moyil va o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladigan shaxslardir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish -bu ularning kelgusidagi ijtimoiy muvaffaqiyati, muloqot madaniyati va shaxsiy kamolotini belgilovchi yetakchi pedagogik vazifalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlari nafaqat bolaning his-tuyg'ular sohasini, balki uning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ham kompleks tarzda qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlar, mashg'ulotlar va metodik tavsiyalarni joriy etish zarur.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhit - ya'ni bola faoliyat yuritayotgan guruhdagi o'zaro munosabatlar, do'stlik, jamoaviy o'yinlar va hamkorlikdagi mashg'ulotlar - emotsional intellektni rivojlantirishning muhim manbalaridan biridir. Aynan shu muhitda bola ijtimoiy rollarni o'rganadi, his-tuyg'ularni ifodalashning madaniyatini egallaydi hamda boshqalar hislariga nisbatan mas'uliyatni his etadi.

Emotsional intellektning rivojlanishi bolaning nafaqat his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini, balki uning ijtimoiy moslashuvchanligi, muloqot madaniyati, empatiyasi va shaxslararo munosabatlarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilovchi jarayondir. Tarbiyachining professional yondashuvi, bolaning shaxsiy xususiyatlarini chuqur anglash va individual yondashuv asosida ishlash - emotsional intellektni shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

CONCLUSION maktabgacha katta yosh bolalarda emotsional intellektni shakllantirishda oilaviy tarbiya, tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini, o'yinli metodika va milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirish - bu nafaqat hissiy tarbiya, balki kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyat poydevorini yaratish demakdir. Shu bois, pedagoglar mashg'ulotlarda emotsional o'yinlar, rolklar, ertak-terapiya va interfaol metodlardan tizimli foydalanishlari zarur. maktabgacha katta yoshdagi bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish uzviy ravishda oilaviy, pedagogik va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Bolaning emotsional dunyosi uning kundalik muloqoti, ota-onalar bilan o'zaro aloqasi, tarbiyachining mehrga asoslangan yondashuvi hamda guruhdagi ijtimoiy tajribalari ta'sirida shakllanadi. O'tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va pedagogik tajriba jarayonlari shuni tasdiqladiki, ijobiy hissiy muhitda tarbiyalangan bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalariga to'g'ri munosabat bildirish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlanadi.

Xususan, syujetli-rolli o'yinlar, dramalashtirish, hissiyotlar teatri, ranglar orqali kayfiyatni ifodalash kabi mashg'ulotlar bolalarda empatiya, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy faollikni oshirgan. Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikning mavjudligi bolaning emotsional intellektining barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekti rivojlangan bolalar guruh muhitida o'zini erkin tutadi, nizoli holatlarda murosaga kelishga intiladi, ijobiy muloqot madaniyatiga ega bo'ladi. Bunday bolalarda o'ziga



ishonch, ijobiy fikrlash, hamkorlikka tayyorlik va boshqalar his-tuyg'ularini inobatga olish xususiyatlari shakllanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ularning keyingi ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli shaxs bo'lib kamol topishiga mustahkam poydevor yaratadi.

References:

1. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.
2. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 1990.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva, 1984.
4. Amonashvili Sh.A. Gumanitar pedagogika asoslari. Tbilisi, 1999.
5. Saidova G.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional madaniyatni shakllantirish. Toshkent: Fan, 2019.
6. Qodirova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent, 2022.
7. Turaeva N.A. Bolaning shaxsiy va hissiy rivojlanishi nazariyasi. Toshkent, 2021.